

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MANTIQIY FIKRLASHNI O‘STIRISH

Alimova Dildora Xoljigitovna

Samarqand viloyati Qo’shrabot tumani 51-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik asoslari hamda samarali usullari haqida so‘z yuritiladi. Mantiqiy fikrlashning maktabgacha va kichik maktab yoshida shakllanishi o‘quvchilarning keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatli ta’lim olishlariga poydevor bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Mantiqiy fikrlash, ko‘nikma, domino, soduko, kompleks tafakkur, ijodkorlik.*

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические основы и эффективные методы формирования и развития навыков логического мышления у учащихся младших классов. Формирование логического мышления в дошкольном и младшем школьном возрасте является основой успешного обучения учащихся на последующих этапах.

Ключевые слова: Логическое мышление, навыки, домино, судуко, комплексное мышление, креативность.

Abstract: This article discusses the pedagogical foundations and effective methods for the formation and development of logical thinking skills in primary school students. The formation of logical thinking in preschool and primary school age serves as the foundation for successful education of students at later stages.

Keywords: Logical thinking, skills, dominoes, soduko, complex thinking, creativity.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilardan nafaqat bilim olish, balki mustaqil fikrlay olish, muammoni tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarni ham talab qiladi. Ayniqsa, mantiqiy fikrlashning erta bosqichlarda shakllanishi o‘quvchining akademik yutuqlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun ta’lim tizimi tobora rivojlanib bormoqda. Yetakchi pedagoglar safi ko‘paymoqda. Shunday ekan, mamlakatimizning XXI asrdagi muvaffaqiyati o‘z ustida timmay izlanib, yangi bilimlar egallaydigan ustozlarga hamda sifatli ta’limga bog‘liq. Shu munosabat bilan, umumiy ta’limning ustuvor yo‘nalishi – o‘rganishga, o‘z-o‘zini tarbiyalashga va olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga qodir bo‘lgan o‘quvchilarning rivojlanish salohiyatini ro‘yobga chiqarishdir. Insonning fikrlash qobiliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu mantiqiy savodxonlik, ya’ni har qanday intellektual faoliyatda zarur bo‘lgan ma’lum bir minimal mantiqiy ko‘nikma va bilimdir.

ASOSIY QISM

Mantiqiy fikrlash nima? Mantiqiy fikrlash — bu voqealar, hodisalar, holatlar orasidagi bog‘liqlikni tushunish, tahlil qilish va asosli xulosa chiqarish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bu ko‘nikma asosan oddiy sabab-oqibat bog‘liqliklarini tushunish, taqqoslash, tasniflash orqali rivojlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni o‘stirish — bu o‘quvchilarning tafakkur qilish, muammoga yechim topish va izchil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish jarayonidir. Quyida ushbu maqsadga erishish uchun samarali yo‘llar keltirilgan:

1. O‘yinlar va mashqlar orqali o‘rgatish:

- Mantiqiy topshiriqlar: “Nima bo‘lishi mumkin?”, “Nima bo‘lmaydi?”, “Farqini top” kabi topshiriqlar.
- Pazllar, labirintlar va domino o‘yinlari.
- Sudoku, shaxmat, dama kabi fikrlashni talab qiladigan o‘yinlar.

2. Savol-javob usulidan foydalanish: ochiq savollar orqali o‘quvchini izlash va topishga undovchi muhit yaratiladi. O‘quvchilarga ochiq, mantiqiy fikrlashga undovchi savollar bering:

- “Agar sen o‘sha joyda bo‘lganingda, nima qilarding?”
- “Nega bu holatda shunday natija bo‘ldi, deb o‘ylaysan?”

3. Taqdimot va hikoya qilish: Bolalarga rasm asosida voqealarni to‘qib aytib berishni, rasm asosida hikoyalar yaratishni topshirish. Bu ularning tahlil qilish va ketma-ketlikni tushunishiga yordam beradi. Ijodkorlik qobiliyatini yanada oshiradi.

4. Klassifikatsiya va guruhlash topshiriqlari: Masalan: “Bir xil shakllarni top”, “Nimani bir guruhga qo‘sib bo‘lmaydi?”, “Bu narsalar qanday umumiylilikka ega?”. O‘quvchilarda predmetlar yoki tushunchalarni umumiyligi belgilariga ko‘ra guruhlash orqali analiz qilish qobiliyatini shakllanadi.

5. Ketma-ketlik va tartiblash mashqlari: voqealarni yoki shakllarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish mantiqiy xulosalarga olib keladi. Bundan tashqari voqealar zanjirini tartiblash mashqlari ham o‘tkazish mumkin. Hikoya matnini qismlarga bo‘lib qog‘ozga chiqartiriladi va o‘quvchilar ularni ketma-ketlikda tartiblaydilar. Bu orqali bola eslab qolish, tezkorlik qobiliyatini ham shakllantiradi.

6. Mantiqiy matnlar, hikoyalar va jumboqlar: qisqa hikoyalarni tahlil qilish, sabablari va natijalarini aniqlash orqali tafakkur faollashadi. O‘quvchilarning yoshi va darajasiga mos qisqa mantiqiy jumboqlar beriladi. “Bir bola 3 ta olmani 2 do‘stiga qanday teng taqsimlaydi?” kabi savollar.

7. Raqamli va grafik materiallardan foydalanish: Diagrammalar, jadval va xaritalar bilan ishslash orqali tafakkurni shakllantirish, fikrlash doirasini kengaytirish, mulohaza qilishga undash hamda darslarni qiziqarli tashkil etish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni o‘stirishda o‘qituvchining roli katta. O‘qituvchi mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda yo‘naltiruvchi, rag‘batlantiruvchi va ijodkor muhit yaratuvchi bo‘lishi lozim. Bolalarda “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Agar

shunday bo’lsa, nima yuz beradi?” kabi savollarni uyg’otuvchi darslar samarali natija beradi.

XULOSA

Boshlang’ich ta’limda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish – bu kelajakdagi kompleks tafakkur, ijodiy yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish kabi qobiliyatlarning negizidir. To‘g’ri yo‘naltirilgan o‘quv jarayoni orqali har bir o‘quvchida bu salohiyatni shakllantirish mumkin va zarurdir.

Hozirgi kunda boshlang’ich sinf o‘quvchilari juda aqli , chunki ular axborot texnologiyalari davrida o‘sib kelayotgan avlod hisoblanadi. Lekin aynan axborot texnologiyasi tufayli ba’zi o‘quvchilar diqqatni yaxshi jamlay olmaydi, aniq va mazmunli fikrlay olmaydi, o‘z fikrini erkin bayon qila olmaydi. Shuning uchun ham yosh o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish va bu ko‘nikmani rivojlantirish bugungu kunning muhim masalasi hisoblanadi. Ko‘p o‘quvchi va o‘qituvchilar faqatgina matematika fani mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi deb hisoblaydilar, aksincha mantiqiy fikrlay oladigan har qanday o‘quvchi matematika fanini, shu bilan birgalikda barcha fanlarni va bilimlarni yaxshi o‘zlashtira oladi. Shunday ekan boshlang’ich sinf o‘quvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatishda ularni ko‘proq fikrlashga yo‘naltirilgan usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov, Sh.A. (2020). “O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va ratsional fikrlashni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar”. — Pedagogika va psixologiya jurnal, 45–59 b.
2. Gruzdeva, A.A. (2018). “Interaktiv o‘qitishning majburiyatları va samaradorligi”. — Ta’lim va hayot, 54–61 b.
3. Mirziyoyev, Sh.M. (2021). “Yangi pedagogik usullar va metodlarni joriy qilish: strategik maqsadlar”. — Ta’limdagi inqilob, 30–42 b.
4. Maksudova, A.T. (2020). “O‘quvchilarda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning zamonaviy usullari”. — Matematika va ta’lim, 101–107 b.
5. Turdimov, I.T. (2020). “Ta’limdagi innovatsiyalar va ularning mantiqiy fikrlashga ta’siri”. — Oliy ta’lim va tajriba, 86–92 b.